


# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**2021- yil yanvar-aprel  
oylarida  
Jizzax viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi**

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 817,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **424,5** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **119,4 %** ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

424,5  
mlrd. so'mga

Hajmning o'sishi

1 817,0  
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

119,4 %

O'sish sur'ati




2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning aprel oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **265,4** mlrd. so'mga o'sdi va **639,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 430,0 mlrd. so'mga kamaydi va 11,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2021- yilning mart oyiga nisbatan joriy yilning aprel oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **218,7** mlrd. so'mga o'sdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning mart oyiga nisbatan 2020- yilning aprel oyida xizmatlar hajmi **479,7** mlrd. so'mga kamaydi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1 817,0</b>	<b>119,4</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	85,7	113,8
Moliyaviy xizmatlar	482,4	114,7
Transport xizmatlari	295,0	122,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	287,9	121,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	54,9	106,3
Savdo xizmatlari	490,9	107,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	44,7	134,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	105,2	176,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	35,1	145,9
Ijara xizmatlari	47,2	158,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	47,2	141,7
Shaxsiy xizmatlar	54,5	132,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	25,6	124,6
Boshqa xizmatlar	48,6	128,0

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

### Nisbatan yuqori ko'rsatkich

### Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **27,0 %** ni tashkil etdi.

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **29,0 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,4 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-aprel oylarida yuqori o'sish ta'lim (**76,6 %**), ijara (**58,5 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi (**45,9 %**), kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha (**41,7 %**), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**34,2 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining keskin pasayishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**6,3 %**) sohasida qayd etildi.


**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **150,6 %**.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining keskin pasayishi me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari (**43,1 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



◆ 2020-y. yanvar-aprel    ● 2021-y. yanvar-aprel



2021- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

## Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da



2021- yil yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi **59,8** % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida yuk tashish xizmatlarining ulushi **61,2** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **27,0 %** ni tashkil etib, bu esa **490,9** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **401,1** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **28,8 %** iga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

401,1

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

490,9

87,0

O'sish sur'ati, % da

107,9

2020- y. yanvar-aprel




2020- y. yanvar-aprel

**2021- yil yanvar-aprel**


**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **80,4 %** ini tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-aprel oylarida)



**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **79,3%** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **482,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **404,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **26,6** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **29,0** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **78,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **14,7** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **150,6** % ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **95,1 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,5%** ni tashkil etadi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **1,4 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**  
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)



Sug'urta va nafaqa ta'minoti  
bo'yicha xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

**Yordamchi moliyaviy  
faoliyat**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,7 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **3,5 %**.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-aprel oylarida)


2021- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **85,7** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **113,8 %** ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:**  
2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turi hajmi **73,6** mlrd. so'm

yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,3 %** iga teng bo'lgan.  
O'sish sur'ati esa **116,8 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **105,2** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **5,8 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **176,6 %** ni tashkil etdi.

57,5  
mlrd.  
so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

105,2  
mlrd.  
so'm

2020- y.  
yanvar-  
aprel



2021- y.  
yanvar-  
aprel

90,3 %

O'sish sur'atlari,  
% da

176,6 %

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **57,5** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan esa kamayish **9,7 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **10,5** mlrd. so'mga ortdi.



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-aprel

88,7 %



11,3 %



9,1 %

90,9 %

2020- y. yanvar-aprel

-  Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
-  Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **88,7 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **90,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.

yanvar-aprel

2021- y.

21,5  
mlrd. so'm

Xizmatlar  
hajmi

35,1  
mlrd. so'm

99,7 %

O'sish  
sur'ati

145,9 %

1,5 %

Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi

1,9%



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi

1 285,5  
ming so'm

### Hajmning o'sishi

280,3  
ming so'mga

2021- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 285,5** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,0** % ni tashkil etdi.



117,0 %

### O'sish sur'ati

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 005,2** ming so'mni tashkil etgan.



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- may holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

12 609  
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

1 923  
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

118,0%

Ularning umumiy sonidagi ulushi

40,6 %

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **40,6** qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **17,3** %, sanoat ulushi **11,6** % ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **6,7** % ga to'g'ri keladi.


## 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **40,6** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **41,1** % ni, sanoat **11,6** % ni, qurilish **6,7** % ni, tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**41,9 %**) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **10,8 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **5,1 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,4 %** ga teng bo'ldi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning faoliyat ko'rsatayotgan ulushi **1,8 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **58,6** % ni tashkil etdi.

### 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining hissi **74,8** % ga to'g'ri keldi.

